

## **Andijon davlat tibbiyot instituti umumiy amaliyot shifokorlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash, stomatologiya va oliy hamshiralik ishi kafedrası**



**Kafedra mudiri tibbiyot fanlar nomzodi, dotsent**

**NAZAROVA GULCHEXRA USMANOVNA**

**Tel: 237-57-14**

**e-mail: [mjpand@mail.ru](mailto:mjpand@mail.ru)**

### **Umumiy amaliyot shifokorlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash, stomatologiya va oliy hamshiralik ishi kafedrası tarixi va faoliyati**

Kafedra “umumiy amaliyot shifokorlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash kafedrası” sifatida 2011 yil tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 1998 yil 10 noyabrdagi PF 2107 “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish” haqidagi Farmoni asosida tibbiyot tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Islohotlar natijasida yangi soha, umumiy amaliyot shifokorligi mutaxassisligi joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inida yangi turdagi qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar tashkil qilindi.

2011-yil QVP o‘quv markazlari faoliyati tugatilishi munosabati va institut rektori A.Q.Shadmanov tashabbusi bilan O‘quv markazlari O‘zbekiston Sog‘liqni Saqlash Vazirligi № 55 sonli va Andijon Davlat tibbiyot instituti № 58-T buyruqlariga asosan “Umumiy amaliyot shifokorlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash” kafedrasiga aylantirilib, kafedraga t.f.n., dotsent Nazarova Gulchexra Usmonovna birinchi kafedra mudiri qilib tayinlandi. Yangi ochilgan kafedraning ish faoliyatini tashkillashtirish, oliy ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi davlat nizomlarining barcha talablariga to‘la qonli javob berishida kafedra mudiri G.U. Nazarovaning xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Bu kafedra Farg‘ona vodiysidagi umumiy amaliyot shifokorligining o‘quv - uslubiy va ilmiy – amaliy malaka oshirish markazi maqomiga ega bo‘ldi. №1 va №2 o‘quv markazlari endilikda kafedraning ikkita o‘quv bazasi sifatida faoliyat yurita boshladi. Umumiy amaliyot shifokorlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash kafedrasida multimedial ma’ruzalari zali, o‘quv xonasi, kutubxona va mulyajlar bilan ishlash xonasidan tashqari bemorlar bilan ishlash maqsadida zamonaviy jihozlangan ro‘yxatga olish xonasi, shifokor ko‘ruvi xonasi, muolaja xonasi, emlash xonalari mavjud.

Kafedra tashkil qilinishida oldinda 1999-yildan boshlab “Salomatlik-1” va “Salomatlik-2” doirasida faoliyat yuritgan 1,2,3 shahar shifokorlari o‘quv markazlari asos bo‘ldi.

Vrachlik o‘quv markazlari eng zamonaviy kompyuter-texnika vositalari, o‘quv qurollari va faoliyat yuritgan xalqaro tajribaga ega UASh trener-o‘qituvchilar kafedra tashkil qilinishida

negiz bo'lib xizmat qildi: t.f.n., dotsent G.U.Nazarova, M.B.Boyqo'ziyeva, M.N.Soipova, YE.S.Soy, A.A.Melkumova, Z.F.Bekirova, G.K.Qosimbekova, dotsent X.M.Xamraqulov, J.M.Xudoyberdiyev, Z.V.Yunusova, Ya.G'.Usmonova, B.B.Miryusupov. Hozirda M.N.Soipova, YE.S.Soy, A.A.Melkumova, Z.F.Bekirova, G.K.Qosimbekova lar Toshkent shahrida faoliyat yuritmoqdalar, YE.S.Soy esa JSST noinfekcion kasalliklar bo'yicha mutaxassisdir.

Kafedra UASh mutaxassisligi doirasidagi 3000 taga yaqin xorijiy olimlar ishtirokida chop etilgan o'quv adabiyotlari, BJSSTning YuNISEF, YuSAID Xalqaro tashkilotlari va "Salomatlik – 1 - 2" loyihalari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmalari, ilmiy – amaliy anjumanlar, o'quv seminarlari ma'lumotlari, ko'plab o'quv ishlab chiqarish filmlarini o'zida mujassam etgan kutubxona bazasiga ega bo'ldi. Birlamchi tibbiy sanitariya yordam muassasalari terapevt va pediatriklarini umumiy amaliyot shifokori mutaxassisi sifatida qayta tayyorlash yangi tashkil etilgan kafedraning birinchi navbatdagi vazifasi qilib belgilandi. Shuningdek faoliyat yuritayotgan umumiy amaliyot shifokorlarini 18,36, 72 va 144 soatli davralarda UASh amaliyotidagi asosiy dolzarb klinik yo'nalishlar bo'yicha uzliksiz malakasini oshirish rejalashtirildi.

Shuningdek, kafedra o'z kutubxonasiga ham ega bo'lib, ular oxirgi yillarda Respublikamizda va chet ellarda chop etilgan "Hamshiralik ishi protokollari" 2 – qism va "UASh uchun qo'llanma" cho'ntak kitobchasi kabi umumiy amaliyot shifokori faoliyatiga oid tibbiy muammolarni o'z ichiga olgan 101 xil yo'nalishda bo'lgan 1688 ta kitoblar bilan jihozlangan.

#### **Kafedrada o'qitiladigan fanlar:**

##### **I. Umumiy amaliyot shifokorlarini ixtisoslashtirish**

##### **II. Umumiy amaliyot shifokorlarini malakasini oshirish**

##### **III. Stomatologiya ixtisoslashtirish**

##### **IV. Stomatologiya malakasini oshirish**

##### **V. Oliy hamshiralik ishi malakasini oshirish**

Kafedrada yuqorida sanab o'tilgan mutaxassisliklar bo'yicha Umumiy amaliyot shifokorligining eng dolzarb mavzularini o'qitiladi:

1. Jamoat sog'ligini saqlash asoslari;
2. Samarador jamoat sog'ligini saqlash: isbotlangan tibbiyot asoslari, tibbiy xizmat sifatini oshirish, dori vositalarini ratsional qo'llash, laboratoriya ishi, menedjment asoslari;
3. Akusherlik va ginekologiya, reproduktiv salomatlik;
4. Nefrologiya, yuqumli kasalliklar, dermatologiya va OIV/OITS;
5. Onkologiya, gastroenterologiya;
6. Kardiologiya, pulmonologiya;
7. Pediatriya, neonatologiya;
8. Bolalar kasalliklarini integrallashtirilgan usulda olib borish;
9. Endokrinologiya, psixiatriya, nevrologiya;
10. Lor, oftalmologiya, revmatologiya;
11. Shoshilinch holatlar, travmatologiya, xirurgiya.

Stomatologiya yo'nalishi doirasida - stomatologiyaning dolzarb muammolari, stomatologiyada yangi texnologiyalari, umumiy stomatologiya, xirurgik stomatologiya kabi mavzular yoritiladi.

Oliy hamshiralik ishi yo'nalishida Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining oliy hamshiralik ishi bo'yicha bitirgan hamshiralari zamonga hamnafas holda Prezidentimiz

Sh.M.Mirziyoyev va Vazirlar Mahkamasining yangi qarorlari va Sog‘liqni saqlash vazirligining buyruqlarining amalga tatbig‘i, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha o‘z ko‘nikma va bilimlarini oshiradilar.

Hozirda kafedrada 3 ta fan nomzodlari, 2 ta dotsent, 4 ta katta o‘qituvchi va 5 ta assistent-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Kafedraning barcha xodimlari o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha ixtisoslashtirishdan o‘tganlar va pedagoglar oilaviy shifokorlik bo‘yicha ko‘p yillik tajribaga ega Angliya, Estoniya kabi qator xorijiy mamlakatlarda Sog‘liqni saqlashda islohatlar va UASh yo‘nalishi bo‘yicha o‘z malakalarini oshirganlar.

## **KAFEDRADA OLIB BORILAYOTGAN ILMIIY-TADQIQOD ISHLARI**

### **Kafedraning ilmiy yo‘nalishi:**

Aholi o‘rtasida YuIK, AG, surunkali noinfeksion kasalliklar, OIV infeksiyasi va ularni xavf omillari epidemiologiyasini o‘rganish, profilaktikasi, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining fan va texnika davlat qo‘mitasi rejasiga kiritilgan 0191010340 raqami bilan tasdiqlangan ilmiy tadqiqot ishini umumiy mavzusi “Farg‘ona vodiysi viloyatlari orasida ovqat hazm qilish organlarining surunkali kasalliklari epidemiologiyasini o‘rganish, ularni barvaqt aniqlash, profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish va olib borishdir. O‘tgan yillar davomida kafedra xodimlari tomonidan 1000 dan ortiq maqolalar chop etilgan bo‘lib, ulardan 450 tasiga yaqini (MDH) va 45 tasi uzoq horij jurnallarida chop etilgan bo‘lib ularning aksariyat qismi umumiy amaliyot shifokorining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan.

Kafedra xodimlari har yili o‘tkaziladigan xalqaro konferensiya va s‘yezdlarda maqola va ma‘ruzalar bilan muntazam qatnashib turadilar. Kafedra rahbarligida viloyat umumiy amaliyot shifokorlari jamiyati ham muntazam faoliyat ko‘rsatib turibdi. Unda kafedra xodimlari ma‘ruzalari bilan ishtirok etadilar

Mustaqillik yillarida onalar va bolalar sog‘ligiga respublikamizda alohida e‘tibor berilayotganligini nazarda tutib kafedra xodimlari bu borada ham salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Professor, t.f.d. T.Z.Jumaboyev, dotsent G.U.Nazarovalar muallifligida tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirishga bag‘ishlangan o‘ndan ortiq (“Tug‘ish yoshidagi ayollarda va homiladorlarda piyelonefritning kechishi va uni davolash”, “Nafas organlari kasalliklarini o‘smirlar, qariyalar va homiladorlarda kechishi” va boshqalar) uslubiy qo‘llanmalari chop etilib amaliyotda ishlayotgan vrachlarga taqdim etildi. Shu bilan bir qatorda kafedra xodimlari muntazam ravishda Andijon, Namangan, hamda Farg‘ona viloyatlarida bo‘lib amaliyotda ishlayotgan vrachlarga yaqindan yordam berib kelmoqdalar. 2009 yildan boshlab Andijon viloyatida tuman QVP lari 2017 yildan Qo‘rg‘ontepa tuman QVP va QOPlari kafedra otalig‘iga berilgan bo‘lib ularga kafedra xodimlari joylarda faol yordam ko‘rsatmoqdalar. Kafedra xodimlari tomonidan 4 ta o‘quv qo‘llanma «Tibbiy ta‘limda ilmiy faoliyat asoslari», «Tibbiy va klinik oldi fanlar o‘quv uslubiy faoliyatini tashkil qilish», «Loyihaviy ta‘lim texnologiyasi: QVP sharoitida bronxial astma bilan kasallangan bemorlarga tibbiy xizmat sifatini oshirish», «UASh faoliyatida EKG asoslari» 75

ta uslubiy qo'llanmalar va 12 ta ma'ruza matnlari chop etildi. 1999- yildan boshlab shu kunga qadar interaktiv o'qitish uslublari o'quv jarayonida keng qo'llanila boshlandi va bu ishlar bo'yicha kafedra institutdagi yetakchi o'quv markazlaridan biriga aylandi.

Kafedra xodimlari tomonidan interaktiv o'qitish uslublariga bag'ishlangan o'quv uslubiy qo'llanmalar chop etildi. O'zbek va rus tilidagi «Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida loyihaviy ta'lim texnologiyalari», «Tibbiyotda keysni ishlab chiqish texnologiyasi», «Yangi pedogogik texnologiyalarni o'quv jarayonida samarali qo'llash», «Tibbiy oliy ta'limda pedagogika asoslari» va boshqalar shular jumlasidandir.

2009 yildan kafedra qoshida «Qishloq vrachlik punkti moduli» tashkil etildi va u yerda muammoli o'qitish, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish hamda kafedralararo gorizontol integratsiyani joriy etish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. So'nggi uch yilda kafedrada interfaol va muammoli o'qitish usullari bo'yicha institut pedagoglari orasida seminar kurslari tashkil qilindi.

### **Kafedra haqida fotolavhalar**



### **KAFEDRA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT ISHLARI**

Har oyning manaviyat va marifat kunlarida kafedra xodimlari kursantlar bilan birgalikda Prezidentning asarlari va nutqlarini, Prezident farmonlari, Hukumat Qarorlari va respublika qonunlarini o'rganish bo'yicha qiziqarli suhbatlar olib bormoqdalar.

Shuningdek, kursantlar yotoqxonalarida jadval asosida navbatchiliklarda qatnashib, talabalar va tinglovchilar o'rtasida davra suhbatlari, maruzalar, uchrashuvlar o'tkazmoqdalar. Har bir davrda davomida tinglovchilarga falsafa, O'zbekiston tarixi va iqtisodiyot madaniyati, «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» darslarini o'tish ta'minlangan va bu darslar haftaning chorshanba va juma kunlari o'tiladi. Muloqot mashg'ulotlari esa kursantlarda faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, ularda yangicha fikrlashni rivojlantirish va kengaytirishda muhim o'rin tutmoqda. Kafedrada o'quv yili mobaynida ma'naviyat va ma'rifat ishlari rejasiga asosan o'tkazilgan tadbirlarda kursantlar faol qatnashadilar. Alisher Navoiy va Bobur tavallud kuniga bag'ishlangan she'rxonlik kechalari kursantlar tomonidan sahna ko'rinishlari sifatida uyushtirildi. Mustaqilligimizning 23 yilligi, 1 oktabr Ustoz va Murabbiylar kuni, 21 oktabr O'zbek tiliga davlat maqomi berilgan kun, 8-dekabr Konstitutsiya kuni, 14 yanvar Vatan himoyachilari kunlari, shuningdek yurtimizdagi ahamiyatli voqealarga bag'ishlangan ma'naviyat kunlari, soatlari kafedralarda tadbirlar sifatida ko'tarinki ruhda o'tkaziladi.



Ma'naviyat soatlarida Prezidentimizning Andijon viloyatiga tashrifi chog'ida andijonliklarga bergan yuksak bahosi, shaharsozlikning andijoncha usuli, Andijonimizning bugungi kundagi jamoli haqida fikr yuritildi.

O'quv yili davomida kursantlar pedagoglar bilan birgalikda "Bog'i Bobur" majmuasiga, "Bobur" drama teatriga, Konstitutsiya va Hotira maydonlariga,



Viloyat O'lkashunoslik muzeyiga, Viloyat Axborot almashinuv markaziga tashriflar uyushtirildi.

### **INSTITUT OTALIQ ISHLARIDAGI KAFEDRA FAOLIYATI**

Kafedra xodimlari institut, viloyat, shahar miq'yosida o'tkazilib kelinayotgan tadbirlarda ham faol ishtirok etadi. Andijon Davlat tibbiyot institutiga birlashtirilgan Gumbaz Mahalla Fuqarolari Yig'ini va Shaxidtepa Mahalla Fuqarolari yig'iniga qarashli mahallalarda otaliq ishlarini uzluksiz olib bormoqdalar. Mahalla aholisi o'rtasida tibbiy va metodik yordam ko'rsatish, sanitariya targ'ibot ishlarini oshirib borish, aholi tibbiy madaniyati darajasini yuksaltirish va dolzarb mavzularda davra suhbatlari va uchrashuvlar uyushtirish ishlarini tashkillashtiradilar.

### **KAFEDRA JAMOASI**

<p style="text-align: center;"><b>Nazarova Gulchexra Usmanovna kafedra mudiri</b> <b>t.f.n., dotsent</b></p> <p>1966y. Toshkent viloyati, Toshkent shahrida tug'ilgan. 1989y. ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 60 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari, 50 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar, 7 ta o'quv qo'llanma, 55 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.</p>
<p style="text-align: center;"><b>Boyqo'ziyeva Marxabo Baxodirovna</b> <b>Kafedra katta o'qituvchisi</b></p> <p>1973y. Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanida tug'ilgan. 1996y. ADTI, pediatriya fakultetini tamomlagan. 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari, 20 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar, 5ta o'quv qo'llanma, 32ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.</p>
<p style="text-align: center;"><b>Jumaboyev Tursunboy Zulunovich t.f.d., professor</b> <b>-2017 yili 26 yanvarda vafot etgan-xotirasi abadiy.</b></p>
<p>1941yil Andijon viloyati, Andijon tumanida tug'ilgan. 1964y. ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari, 20 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar, 5ta o'quv qo'llanma, 42ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi edi.</p>
<p style="text-align: center;"><b>Nosirov Maxammadjon Maxmudovich t.f.n, dotsent,</b> <b>kafedra ilmiy ishlari bo'yicha mas'ul</b></p> <p>1946yil Andijon viloyati, Andijon shahrida tug'ilgan. 1967y. ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari, 20 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar, 1 ta o'quv qo'llanma, 18 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.</p>

**Xudoyberdiyev Abdujabbor Mamataliyevich**  
**Katta o'qituvchi, kafedra ma'naviyat ishlari bo'yicha mas'ul**

1957 yil Andijon viloyati, Oltinko'l tumanida tug'ilgan. 1983y. ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 20 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tadbiiq etilgan ishlar, 1 ta o'quv qo'llanma, 24 ta o'quv-uslubiiy qo'llanmalar muallifi.

**Raxmatova Mavludaxon Mamasiddikovna assistent**  
**kafedra o'quv ishlari bo'yicha ma'sul**

1968 yil Andijon viloyati, Andijon tumanida tug'ilgan. 1996y. ADTI, pediatriya fakultetini tamomlagan. 20 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 20 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tadbiiq etilgan ishlar, 5 ta o'quv-uslubiiy qo'llanmalar muallifi.

**Madaminova Nigoraxon Ergashevna**  
**kata o'qituvchi, oliy xamshiralik ishi yo'nalishi mas'uli**

1979 yil Andijon viloyati, Andijon shahrida tug'ilgan. 1994y. ADTI, pediatriya fakultetini tamomlagan. 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 20 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tadbiiq etilgan ishlar, 7 ta o'quv qo'llanma, 22 ta o'quv-uslubiiy qo'llanmalar muallifi.

**Borotova Sharipaxon Abdupattayevna**  
**assistent**

1979 yil Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanida tug'ilgan. 2003y. ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 2010 yili UASh bo'yicha magistraturani tamomlab, UASh magistri unvonini olgan. 28 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 40 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tadbiiq etilgan ishlar, 2 ta o'quv qo'llanma, 14 ta o'quv-uslubiiy qo'llanmalar muallifi.

**Ziyayeva Inoyat Dexqonovna**  
**assistent**

1966 yil Andijon viloyati, Shaxrixon tumanida tug'ilgan. 1990 y. ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 10 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 8 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tadbiiq etilgan ishlar, 2 ta o'quv-uslubiiy qo'llanmalar muallifi.

**To'lanov Dilshodbek Shomirzayevich**  
**t.f.n., stomatologiya fani katta o'qituvchisi**

1968 yil Andijon viloyati, Buloqboshi tumanida tug'ilgan. 1992y. ToshMI, stomatologiya fakultetini tamomlagan. 10 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 8 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tadbiiq etilgan ishlar, 2 ta o'quv-uslubiiy qo'llanmalar muallifi.

**Abduraxmanova Muxayyo Abduraximovna assistent**  
**Stomatologiya yo'nalishi ma'suli,**

1966 yil Andijon viloyati, Izboskan tumanida tug'ilgan. 1988 y. ToshMI, stomatologiya fakultetini tamomlagan. 9 dan ortiq ilmiy maqola va 31 ta tezislar, 8 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tadbiiq etilgan ishlar, 7 ta o'quv-uslubiiy qo'llanmalar muallifi.

**Po'latov Nasrullo Xosiljonovich**  
**Stomatologiya yo'nalishi fani assistenti**

1983 yil Andijon viloyati, Buloqboshi tumanida tug‘ilgan. 2006y. ToshMI, stomatologiya fakultetini tamomlagan. 7 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 9 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tadbiiq etilgan ishlar, 5 ta o‘quv-uslubiiy qo‘llanmalar muallifi.

**Ibragimov Nasiriddin Ibragimovich**  
**Stomatologiya yo‘nalishi fani dosenti**

1936 yil Andijon viloyati, Andijon shaxri S.Obidov 1-tor ko‘cha 11 xonadonida tugilgan. 1959 yili ToshMI, stomatologiya fakultetini tamomlagan. Kafedrada 2018 yanvar oyidan stomatologiya yo‘nalishida faoliyatini boshladi. 50 yildan ortik pedagogik va stomatolog mutaxassisligi ish stajiga ega. Bugungi kunda "Yuz-jag soxasida joylashgan yiringli jarayonlar" mavzusidagi monografiya ustida ish olib bormokda. 30 dan ortik makola va publikasiyalar muallifi.